

MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Bektoshev Anvar Xamza o‘g‘li

Qarshi Davlat Texnika universiteti

1-kurs magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy darajada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Unda tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o‘sisdagi roli, zamonaviy yondashuvlar, soliq imtiyozlari, kreditlash siyosati, infratuzilmani yaxshilash va biznes muhiti erkinligini oshirish kabi omillar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida tavsiyalar berilgan. Maqola hududiy rivojlanishda kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mintaqaviy rivojlanish, davlat qo‘llab-quvvatlashi, kreditlash, soliq imtiyozlari, biznes muhit.

Hozirgi globallashuv va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonida mamlakatimizda faol tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish va ilg‘or texnologiyalar hamda boshqaruv uslublarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu sa‘y-harakatlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratilmoqda, bu esa o‘z navbatida ularning barqaror rivojlanishiga, samaradorligining oshishiga va xalqaro me‘yorlarga mos faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o‘tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo‘llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish, uni rag‘batlantirishga bag‘ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul

qilindi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda.

Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida, ushbu sohani rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish choralari ishlab chiqilmoqda. Xususan, tadbirkorlik subyektlari uchun turli soliq yengilliklari joriy qilinib, ular iqtisodiy rag'batlantirish vositasiga aylantirildi. Shu jumladan, yagona soliq to'lovi amaliyoti tatbiq etilib, bu tizim orqali kichik biznes vakillari bir nechta soliq va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan shaklda yagona to'lov amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam sifatida, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish tizimi mustahkamlandi. Jumladan, ilk bor Ombudsman instituti tashkil etilib, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda samarali mexanizmga aylandi.

Shuningdek, biznes yuritish muhitini yaxshilash maqsadida soliqlar sezilarli darajada kamaytirildi, kredit olish shartlari soddalashtirildi va moliyalashtirishga keng yo'l ochildi. Shu bilan birga, yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ularda investorlar uchun maxsus imtiyozlar yaratildi. Bularning barchasi kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qilmoqda va mamlakatimizda raqobatbardosh tadbirkorlik muhitini shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining bandligi va farovonligini ta'minlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bozor

iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati muhim funksiyalarni bajarishi bilan ajralib turadi.

Birinchidan, tadbirkorlik jamiyatda bozor munosabatlarga moslashuvchanlikni shakllantiradi, iqtisodiyotning moslashuvchan va dinamik rivojlanishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, aholi orasida mavjud bo'lgan moliyaviy, mehnat va xomashyo resurslarini maqsadli yo'naltirish orqali ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Uchinchi jihat shuki, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda kichik biznesning o'рни beqiyos bo'lib, bu esa mahsulot va xizmatlar sifati oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlik ilmiy-texnik taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlarida yangiliklarni joriy etishga xizmat qiladi. U bandlik muammosining yechimida asosiy vositalardan biri sifatida ko'riladi, chunki ko'plab ishsiz fuqarolar tadbirkorlik orqali o'z faoliyatini boshlash imkoniga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy zo'riqishlar yumshatiladi va bozor munosabatlari yanada ochiq, demokratik shaklga kiradi.

Tadbirkorlik shuningdek, insonlarda ijodiy yondashuv va yangilikka intilishni rag'batlantiradi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – ayollar, nogironlar, yoshlar – bu sohada o'z o'rnini topib, faol ishtirok etishlari mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida malaka va tajriba orttirishning qulay muhitini yaratadi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv rivojlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatida ko'riladi.

Tadbirkorlik faoliyati o'z mazmun-mohiyati va ko'lamiga ko'ra turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ular orasida ayniqsa, o'z faoliyat hajmi bilan ajralib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohalar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Bu boradagi ularning roli va amaliy ahamiyati asosan bajarilayotgan funksiyalar orqali o'z ifodasini topadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faoliyat doirasi keng va ko'p qirrali bo'lib, ularning mavjudligi nafaqat global miqyosda, balki har bir

mamlakatda, shu jumladan, o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan davlatlar uchun ham alohida ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda bu sohalar orqali yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning ulushi ortib bormoqda, shuningdek, ish bilan band bo'lgan aholining katta qismi aynan kichik biznes subyektlari orqali ish o'rinlariga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy innovatsiyalarning katta qismi ham ushbu sektor doirasida shakllanmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy siyosatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash asosiy strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Xususan, kichik biznes:

Aholining bandligini ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi;

Iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi;

Yangi ishlab chiqarish shakllarini izlab topish va amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etadi;

Davlat byudjetini soliqlar orqali to'ldirishda sezilarli ulushga ega (masalan, Germaniyada soliqlar tushumining yarmi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi);

Iqtisodiy inqirozlar yoki pasayishlar davrida barqarorlikni saqlab qolish vositasi sifatida xizmat qiladi (Vengriya, Chexiya va Polsha misolida bu ayniqsa yaqqol namoyon bo'lgan).

Kichik biznes yirik biznes bilan uzviy aloqada bo'lib, umumiy iqtisodiy muvozanatni saqlash, mamlakatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham, har bir davlat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda ushbu sektorga alohida e'tibor qaratadi va uni strategik jihatdan rivojlantirishga intiladi.

O'zbekistonda kichik korxonalar tizimini shakllantirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Erkin mehnat resurslari, yangi xo‘jalik munosabatlarining joriy etilishi va yangi mulkchilik shakllarining paydo bo‘lishi natijasida ishlab chiqarishdan bo‘shatilgan shaxslarni ijtimoiy ishlab chiqarishga kengroq jalb etish imkoniyati yuzaga keladi.

Aholining, ayniqsa yoshlarning moddiy, ma‘naviy va kasbiy darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek, kichik va o‘rta korxonalar, qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga ko‘maklashiladi. Bu esa har bir mintaqa uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etishini tan olgan holda, uning ahamiyatini ortiqcha baholab yubormaslik lozim.

O‘zbekiston ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelini shakllantirish jarayonida muhim ustuvorliklardan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, va bu sohaning o‘z o‘rnini topishi uchun zarur bo‘lgan institutlar tizimi yaratildi. Shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, tadbirkorlarni rag‘batlantiruvchi nodavlat tashkilotlar va turli xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining shakllanishi va rivojlanishi izchil davom etmoqda. Ushbu subyektlar ko‘pincha katta moliyaviy resurslarsiz, o‘z tashabbuslari asosida ish joylarini yaratishga, iste‘mol bozorida vaqtinchalik yuzaga kelgan tovar tanqisligini kamaytirishga va hatto bartaraf etishga qodir bo‘lmoqda. Kichik korxonalar faoliyati aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa maishiy xizmatlar ko‘rsatish hamda xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish yo‘nalishlarida ularning roli yuksak baholanmoqda.

Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda ham muhim o‘rin

tutadi. Bu esa nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga, balki zamonaviy ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.¹

Xulosa qilib aytganda, Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, ayniqsa aholining tabiiy o'sishi va ijtimoiy ehtiyojlarining ortib borishi fonida, ishlab chiqarish sohasini kengaytirish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama rivojlantirish orqali aholining turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish mumkin. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, moliyalashtirish mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish va bu jarayonda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy barqarorlikka, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda banklarning roli va ahamiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tizimli yondashuvini ta'minlash, zamonaviy moliyaviy va infratuzilmaviy mexanizmlarni tatbiq etish, shuningdek, xorijiy ilg'or tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish orqali hududlarda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Karimov. "Tadbirkorlik iqtisodiyoti". T., 2020.

¹ Tursunov B.O. Hududiy iqtisodiyot va kichik biznesni rivojlantirish masalalari. – Termiz: Surxon nashriyoti, 2020. – 132-b.

2. Hasanov U.H. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 176-b.
3. Ruzmetova M.K. Xususiy sektor va uning iqtisodiyotni liberallashtirishdagi o‘rni. – Toshkent: Ilm Ziya, 2020. – 145-b.
4. G‘ofurova G.M. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni tashkil etish. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 158-b.
5. Tursunov B.O. Hududiy iqtisodiyot va kichik biznesni rivojlantirish masalalari. – Termiz: Surxon nashriyoti, 2020. – 132-b.